

7«10»2022 yil.

300-11-153-OB/2022-son

## MAXSULOQT YETKAZIB BERISH SHARTNOMASI №46379

Ushbu shartnoma «Buyurtmachi» deb ataluvchi Beshariq tumani Obodonlashtirish boshqarmasi va uning nomidan Nizom asosida ish olib boruvchi boshqarma boshlig'i N. Nasipov bir tomondan va «Yetkazib beruvchi» deb ataluvchi «SHERXON INVEST QURILISH ONE» MCHJ va uning nomidan Nizom asosida ish olib boruvchi raxbari SH.Muxammedov ikkinchi tomondan kelishuv asosida amaldagi qonunlarga muvofiq tuzildi.

### I. SHARTNOMANING MAVZUSI

1.1. «Yetkazib beruvchi» mazkur shartnoma shartlariga muvofiq «Buyurtmachi»ning talablaridan kelib chiqib, «**Fargona viloyati Beshariq tumani Eshon, Yuqori Zarqaynar MFYlar hududida ichimlik suv ta'minotini yaxshilash maqsadida 100m suv ko'tarish trubalari(12ta Flanets, 2ta zadvijka, 3kg 14mm o'lchamdagi bolt-gaykalari bilan)** yetkazib beradi.

### II. SHARTNOMANING BAXOSI VA XISOB KITOB TARTIBI

komissiyasining qarori bilan tasdiqlangan maxsulotlar qiymati (barcha soliqlar, yig'img'lar va ajratmalarni o'z ichiga olgan xolda)ga asosan joriy narxlarda shartnomaning umumiy narxi **49 950 000 (Qirq to'qqiz million to'qqiz yuz ellik ming)** QQSli so'mni tashkil etadi.

2.2. SHartnoma tomonlar o'rtasida imzolanib, tegishli G'aznachilik bo'limida ro'yxatga olingandan so'ng 15 bank ish kunida «Buyurtmachi» yetkazib beriladigan asosiy vositalar umumiy qiymatining 30 foizini oldindan ya'ni, avans tariqasida «yetkazib beruvchi»ning xisob raqamiga o'tkazib beradi.

2.3. Asosiy vositalar uchun to'lovlarning qolgan 70 foizi, «yetkazib beruvchi» tomonidan topshirilgan xisob-varaq fakturalar asosida 30 bank ish kunida o'tkazib beradi.

2.4. Bajirilgan ishlar uchun to'lovlar «Buyurtmachi» tomonidan pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

### III. TOMONLARNING XUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. «Yetkazib beruvchi»ning majburiyatlari

SHartnoma imzolangandan so'ng yetkazib beriladigan asosiy vositalar«Buyurtmachi»dan xisob-varaq fakturaga asosan qabul qilib oladi.

Mazkur shartnomada ilova qilinadigan to'lovlar jadvaliga muvofiq avans to'lovi amalga oshirilgandan boshlab 5 kun muddat ichida asosiy vositalarni yetkazib beradi.



Barcha ishlarni buyurtmachi talablariga muvofiq, mazkur shartnomada nazarda tutilgan hajmda va 30 kun muddatda o'zining kuchlari bilan bajarish hamda «Buyurtmachi»ga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshiradi.

### 3.2. «Yetkazib beruvchi»ning xuquqlari

Maxsulot uchun oldindan avans xaq to'lanishini va ishni bajarib topshirgandan so'ng to'la xajmda xisob kitob qilinishini talab qilish;

Maxsulotni qabul qilib olish asossiz ravishda rad etilishi natijasida etkazilgan zararni qoplanishini talab qilish;

### 3.3. «Buyurtmachi»ning majburiyatlari

Tasdiqlangan talablar bo'yicha maxsulotlarni qabul qilib olish;

Sotib olingan maxsulotlar uchun o'z vaqtida xaq to'lash;

### 3.4. «Buyurtmachi»ning xuquqlari

«Yetkazib beruvchi»dan amaldagi davlat standartlari va boshqa me'yoriy xujjatlar bilan ta'minlashni talab qilish;

Kamchiliklarni bepul bartaraf etilishi yoki kamchiliklarni boshqa shaxs tomonidan to'g'rilanishi xarajatlarini qoplanishini talab qilish;

«Yetkazib beruvchi»dan shartnomada kursatilgan maxsulotlarni qabul qilish komissiyasi ishtirokida sifatini kurib olish;

«Yetkazib beruvchi» tomonidan yetkazib berilgan maxsulotlarni shartnoma shartlariga va ish xujjatlariga muvofikligini nazorat qilish.

## IV. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

4.1. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatini bajarmasa yoki zarur darajada bajarmasa majburiyatni bajarmagan tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni to'laydi;

4.2. «Yetkazib beruvchi» maxsulotni o'z vaqtida topshirmaganligi uchun «Buyurtmachi»ga xar bir kechiktirilgan kun uchun shartnoma majburiyatlari bajarilmagan qismining 0,5 % miqdorida penya to'laydi. To'lanadigan penya summasi bajarilmagan majburiyatlar bahosining 50 % idan oshmasligi kerak.

4.3. Aniqlangan nuqson va kamchiliklar «Yetkazib beruvchi» tomonidan o'z vaqtida bartaraf qilinmasa «Buyurtmachi» tomonidan to'lovlar to'xtatiladi. Lozim darajada bajarilmagan ishlarning 20 % i miqdorida «Yetkazib beruvchi» jarima to'laydi.

4.4. Yetkazib berilgan maxsulotlar uchun «Buyurtmachi» tomonidan o'z vaqtida xaq to'lanmasa, xar bir kechiktirilgan kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 %i miqdorida penya to'laydi. To'lanadigan penyalarning umumiy summasi kechiktirilgan to'lovlarning 50 %i miqdoridan ortmasligi kerak.

4.5. To'lanadigan penya va jarimalar shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni ikkinchi tarafga ana shu majburiyatlarni bajarmaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplash javobgarligidan ozod etmaydi.

## V. FORS MAJOR XOLATLAR

5.1 Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni to'liq yoki qisman bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch xolatlari natijasida kelib chiqsa va bu xolatlar shartnoma shartlarini bajarilishiga bevosita ta'sir etsa tomonlarning javobgarlikdan ozod etilishi Qonun xujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.



## **VI. SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH, BEKOR QILISH VA NIZOLARNI XAL QILISH TARTIBI**

6.1. Mazkur shartnoma belgilangan shaklda tomonlarning o'zaro kelishuviga muvofiq o'zgartirilishi va bekor qilinishi mumkin.

6.2. Mazkur shartnoma bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizo va kelishmovchiliklar o'zaro muxokama yo'llari bilan xal etiladi. Agarda o'zaro muxokama yo'li bilan xal etish imkoni bo'lmasa Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Iqtisodiy sud orqali xal etiladi.

## **VII. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATLARI**

7.1. SHartnoma tomonlar imzolab, xududiy G'aznachilik bo'limida ro'yxatga olingan kundan kuchga kirib, 2022 yil joriy moliya yili doirasida amal qiladi.

7.2. SHartnoma 2 nusxada tuzilib, ikkala nusxasi ham xuquqiy jihatdan teng kuchli hisoblanadi.

## **VIII. KORRUPSIYAGA**

## **QARSHI**

## **SHART**

### **Tomonlar:**

8.1. Tomonlar, ularning kaffilangan (o'zaro bog'langan) shaxslari va xodimlari, ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishlari davomida korrupsiyaga qarshi (ammo bu bilan cheklanmay) pora berish yoki berishni va'da qilish, ta'magirlik, kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari talablarining buzilishiga olib keladigan va/yoki korrupsiya xarakteriga ega bo'lgan, shu jumladan pora olishga bevosita yoki bilvosita rozi bo'lish xatti harakatlari harakatsizliklarini sodir etmaydilar.

8.2. Tomonlar, ularning affilangan (o'zaro bog'langan) shaxslari va xodimlari boshqa tomonning xodimlari yoki vakolatlangan vakillarini qandaydir tarzda rag'batlantirishdan, shu jumladan pul summalari, sovg'alarni taqdim etish, ularning manziliga xizmatlarni beg'araz ko'rsatish yoki bu xodim yoki vakolatlangan vakil tomonidan uni rag'batlantiruvchi Tomon foydasiga qandaydir xattiharakatlarni harakatsizliklar bajarilishini ta'minlashga qaratilgan ishlarni bajarishdan voz kechadilar deb ma'lum qiladilar.

8.3. Tomonda ushbu Shartnomaning talablarni buzish sodir etilganligi yoki sodir etilishi mumkinligi to'g'risidagi shubhalar yuzaga kelgan holda, tegishli Tomon bu haqda ikkinchi Tomonni xabardor qilish, korrupsiya bilan kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarining normalari buzilganligi faktining rad etib bo'lmaydigan dalillari mavjud bo'lgan holda esa amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatlangan organlarni ham xabardor qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi

## **IX. TOMONLARNING REKVIZITLARI**



“Yetkazib beruvchi”

“Buyurtmachi”

«SHERXON INVEST QURILISH ONE»  
MCHJ

Beshariq tumani Sobirtepa qishlog‘i

x/r 20208000105271363001

INN 307679454 MFO 00797

OKOD

Xalq banki Beshariq tumani filiali

Beshariq tumani Obodonlashtirish  
boshqarmasi


Beshariq shahri Oltin Vodiy ko‘chasi  
№114uy

x/r 100022860302157062902110002

INN 206994051 MFO 00014


OKOD 70210

Markaziy bank Toshkent XKKMM



Raxbar: SH.Muxammedov

Raxbar: N.Nasipov

	Hujjat <b>elektron raqamli imzo</b> orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun <b>QR Code</b> ni skanerlang.	
	Imzolovchi F.I.SH.	NOSIRJON NASIPOV QOSIMOVICH
	Imzolangan sana	7 OKT 2022 09:17
	Hujjat kodi	GG6612434305
	Hulosa kodi	MY8572230406





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI**  
**FARG‘ONA VILOYAT ADLIYA BOSHQARMASI**  
**BESHARIQ TUMAN ADLIYA BO‘LIMI**  
**YURIDIK XIZMAT KO‘RSATISH MARKAZI**

150300, Beshariq tumani, Oltin vodi y ko'chasi, 46-uy  
Tel.:(998 73) 612-21-19, el. pochta: beshariq-t-yurmarkaz@adliya.uz

06.10.2022 yil

**Beshariq tuman**  
**Obodonlashtirish boshqarmasi**

**XULOSA**

*(Obodonlashtirish boshqarmasining  
shartnomaloyihasiga)*

**1.Loyihaning turi:** Shartnoma.

**2.Loyhaning nomi:** “Mahsulot yetkazib berish to‘g‘risida”gi shartnoma.

**3.Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:**

Beshariq tuman Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan 2022 yil 3 oktyabr kuni ishlab chiqilib, shu kuni markazga taqdim qilingan.

**4.Loyiha bo‘yicha taklif:** Beshariq tuman Obodonlashtirish boshqarmasi hamda «SHERHON INVEST QURILISH ONE» MCHJ o‘rtasida “Farg‘ona viloyati Beshariq tumani Eshon, Yuqori Zarqaynar MFYlar hududida ichimlik suv ta‘minotini yaxshilash maqsadida 100m suv ko‘tarish trubalari (12ta Flanets, 2ta zadvijka, 3kg 14mm o‘lchamdagi bolt-gaykalari bilan) to‘g‘risidagi 49 950 000 (Qirq to‘qqiz million to‘qqiz yuz ellik ming) so‘mlik shartnoma loyihasi amaldagi qonunchilikka muvofiqligi mazmunan o‘rganib chiqildi.

Shartnoma loyihasi O‘zbekiston Respublikasining 1998 yil 29 avgustdagi “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonuning 10-moddasi (Xo‘jalik shartnomasiga nisbatan qo‘yiladigan talablar)ga muvofiq ishlab chiqilgan.

O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 22-apreldagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi 684-sonli Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018 yil 26 mayda №3016-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan“Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi” nizom va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 02-iyuldagi PQ-5171-sonli Davlat xaridlari shaffofligini ta‘minlash va samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi qarorini ijrosini ta‘minlash maqsadida Respublika Tovar hom-ashyo birjasining xarid.uz saytidagi boshqarmaning shaxsiy kabineti orqali №1153322-lotraqami bilan e‘lon jo‘ylashtirilgan.

Shartnoma loyihasiga, Beshariq tuman Obodonlashtirish boshqarmasining 2022 yil 30 avgust kungi tanlov komissiyasining yig‘ilish bayoni,



№153322-lotraqamli e'lon bo'yicha takliflar, bajaruvchilarning tadbirkorlik Guvohnoma-litsensiyasi, Farg'ona viloyati Beshariq tumani hokimining 2022 yil 11-avgustdagi 146-11-153-F/22-sonli qarori ilova qilingan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra:

### XULOSA

Beshariq tuman Obodonlashtirish boshqarmasining "Mahsulot yetkazib berish to'g'risida"gi shartnoma loyihasi amaldagi qonunchilikka muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti:



X.Abdurafiqov



“ТАСДИҚЛАЙМАН”

Бешарик тумани  
Ободонлаштириш бошкармаси  
бошлиғи  
(комиссия раиси)



Н.Насипов

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар маҳкамасининг 2022 йил 20 майдаги Давлат харидларини амалга ошириш билан боғлиқ тартиб-таомилларни ташкил этиш ва ўтказиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақидаги қарори ва Давлат харидлари тўғрисидаги қонуннинг 62-моддасининг 7-хатбошисига кўра Бешарик тумани Ободонлаштириш бошкармаси томонидан **Фаргона вилояти Бешарик тумани Эшон, Юкори Заркайнар МФЙлар** ҳудудида ичимлик суви таъминоти яхшилаш мақсадида **100 м сув кутариш турбалари (12 та Flantes, 2 та zadvijka, 3kg 14mm улчамдаги булт гайкалар)** буйича 22110012143322-сонли лот юзасидан танлов комиссиясининг муҳокама натижалари тугрисида

37 -СОНЛИ МАЖЛИС БАЁНИ

2022 йил 07 октябрь соат 10:19

Бешарик шаҳри

Танлов комиссияси иштирокчилари:

Комиссия раиси:  
Комиссия котиби:  
Комиссия аъзоси:  
Комиссия аъзоси:  
Комиссия аъзоси:  
Комиссия аъзоси:

Раҳбар  
Бош ҳисобчи  
Техника хавфсизлиги муҳандиси  
Йул техниги  
Омбор мудир  
Булим бошлиғи

Н. Насипов  
Б. Пирназаров  
Х. Дадабоев  
А. Пулатов  
Д. Фаттоев  
Л. Юсуфжонов

**Йигилиш кун тартибидаги масала:**


**Фаргона вилояти Бешарик тумани Эшон, Юкори Заркайнар МФЙлар** ҳудудида ичимлик суви таъминоти яхшилаш мақсадида **100 м сув кутариш турбалари (12 та Flantes, 2 та zadvijka, 3kg 14mm улчамдаги булт гайкалар)** буйича **УзРТСБ Etender.uzex.uz** порталида 20-09-2022й 23:54 дан 20-09-2022й 23:54 гача бўлган вақтда жойлаштирилган. Танловда 2 (икки) нафар иштирокчи қатнашди булар:

1. SHERXON INVEST QURILISH ONE MCHJ
2. WORLD MARKET BESHARIQ 1995




28.09.2022й 09:07 да танлов комиссияси аъзолари томонидан SHERXON INVEST QURILISH ONE MCHJ голиб деб топилди ва бу ҳақда электрон баённома расмийлаштирилди ҳамда шу вақтда 2 иш кунига муҳокамага жойлаштирилди. Шу 2 иш куни давомида ҳеч қандай эътирозлар келиб тушмади ва махсус комиссия қарори буйича голиб билан шартнома тузишга қарор килинди.

Комиссия раиси:




Н. Насипов

Комиссия аъзоси:




Х. Дадабоев

Комиссия аъзоси:




А. Пулатов

Комиссия аъзоси:



Д. Фатг'оев

Комиссия аъзоси:



Л. Юсуфжонов